BIZNES VA BOSHQARUVNING KREATIV IQTISODIYOT HAMDA SUN'IY INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN

2026-YIL 23–24-APREL



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QARSHI DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI

“BIZNES VA BOSHQARUVNING KREATIV IQTISODIYOT HAMDA SUN’IY INTELLEKTNI RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI VA AHAMIYATI” MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI MATERIALLARI TO‘PLAMI

QARSHI-2026

“Biznes va boshqaruvning kreativ iqtisodiyot hamda sun’iy intellektni rivojlantirishdagi o‘rni va ahamiyati” mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – Qarshi, 2026. -1855 bet.

Mazkur maqolalar to’plamida jamlangan maqolalar zamonaviy iqtisodiyot sharoitida kreativ iqtisodiyot va sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishlarning samarali rivojlanishi bevosita biznes muhiti va boshqaruv tizimlarining qanchalik to‘g‘ri tashkil etilganiga bog‘liq. Avvalo, biznes sektori kreativ iqtisodiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo‘ladi. Kreativ iqtisodiyot — bu bilim, innovatsiya, intellektual salohiyat va ijodiy yondashuvlarga asoslangan iqtisodiy faoliyatdir. Bunda reklama, dizayn, IT, media, san’at va startap loyihalar muhim o‘rin tutadi. Aynan biznes subyektlari ushbu sohalarga investitsiya kiritish, yangi mahsulot va xizmatlar yaratish orqali kreativ g‘oyalarni real iqtisodiy qiymatga aylantiradi. Shu bilan birga, boshqaruv tizimlari kreativ iqtisodiyotning samarali ishlashini ta’minlaydi. Zamonaviy boshqaruv innovatsion fikrlashni qo‘llab-quvvatlashi, xodimlarning ijodiy salohiyatini ochib berishi va moslashuvchan strategiyalarni joriy etishi lozim.

Mazkur to‘plam olimlar, mutaxassislar va talabalar uchun muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

MAS’UL MUHARRIR
Norqobilova Feruza Abduhomidovna –
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY’ATI

G‘ulomov Saidaxror Saidaxmedovich-	O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Raxmonov Lochin To‘xtamishovich –	i.f.f.d (PhD) Osiyo texnologiyalar universiteti rektori
Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich -	iqtisodiyot fanlari doktori, professor Buxoro davlat universiteti
Tursunov Imomnazar Egamberdiyevich –	iqtisodiyot fanlari doktori, professor O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Demokratik institutlar va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish masalalari qo‘mitasining a’zosi
Muxitdinov Xudayar Suyunovich -	iqtisodiyot fanlari doktori, professor. Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

Ushbu ilmiy – amaliy anjuman materiallari Qarshi davlat texnika universiteti Ilmiy Kengashining xulosasiga muvofiq nashrga tavsiya etilgan.

To‘plamga kiritilgan ma’lumotlarning to’g’riligi, stilistik bexatoligi uchun mualliflar mas’uldir.

Qarshi davlat texnika universiteti, 2026

Maxmatqulov G‘olibjon Xolmuminovich - Savdo tizimi samaradorligini logistika omillari asosida ekonometrik baholash	1069
Qarshiboyev Xayrulla Qilichovich - Korxonaning iqtisodiy rivojlanishini bashorat qilishda korrelyatsiya va regressiya tahlili	1073
Urazmatov Jonibek Musurmanovich - Qo‘shilgan qiymat solig‘ini undirish samaradorligini baholash modelining ekonometrik tahlili	1077
Xo‘janova Gulshoda Otamurodovna, Xushvaqtova Ruxshona Farxod qizi - Banklarda valyuta operatsiyalari auditini takomillashtirish	1084
A.A.Abduvaliyev, N.T.Xujaqulov, M.Q.Xujaqulova - Kreativ salohiyatining innovatsion o‘sish modeli, trend modellari va empirik tahlil	1088
Annayev Abbos Baxtiyor o‘g‘li – Aholining turmush darajasini oshirishda ta’lim tizimining tutgan o‘rni	1092
U.Z.Raximova Ko‘p mezonli optimallashtirish asosida turizm infratuzilmasini rivojlantirishni tartibga solish (Samarqand viloyati misolida)	1095
Muxtorova Shohida Negmat qizi Nomozov Og’abek Sayidqul o’g’li - YAIM o‘sishini ekonometrik modellar orqali prognozlash va qaror qabul qilish	1098
Ravshanov Alisher Bobaqulovich - Ko‘p yillik o‘simliklarni hisobda aks ettirish masalalari	1102
Usanov K. X - Respublika hududida yuk aylanmasining hajmini prognozlash	1108
Xamrayev Nodir Zokir o’g’li - Qayta ishlash sanoati rivojiga ta’sir etuvchi omillarni baholash va tahlil qilish..1120	1110
Usanov K. X. - Respublikada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ishlab chiqarish hajmi tahlili..1123	1114
Muxtorova Shohida Negmat qizi Xayrullayeva Pokiza Ruhiddin qizi - Hududlar kesimida iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni statistik tahlil qilish va prognozlash..1125	1115
S.I.Xudoyberdiyev – Vaqt qatorlari asosida biznes jarayonlarini modellashtirish va prognozlash..1129	1119
Xurramov Ramazon Allayor o‘g‘li - Hududlar eksport salohiyatini baholashda logistika samaradorligi va bojxona sifati omilining statistik tahlili.	1126
S.I.Xudoyberdiyev - Ijtimoiy hodisa va jarayonlarni tekshirishda ekspert usulining ahamiyati.	1132
Qulmurotov Sohibjon Jumaniyozovich Suyunova Zamira Obidjon qizi - Tadbirkorlik subyektlari buxgalteriya balansi va uning tahlili	1134
Kuralbayev Jo‘rabek Aybekovich - O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishda energiya tizimlarini ekonometrik modellashtirishda xorij tajribalarini qo‘llash.	1138
Raximova Umida Ziyadullayevna - Mintaqaviy turizm klasterlarini innovatsion boshqarishda ekonometrik modellardan foydalanish (Samarqand viloyati misolida)	1142
Toshtemirov Yo‘ldosh Norpulat o’g’li - Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga transport xizmatlarining roli.	1146
Qosimjonov Ikromjon Qosimjon o’g’li - Moliyaviy stress va uning ishga qabul jarayoniga ta’siri: O‘zbekiston misolida.	1151
Muxtorova Shohida Negmat qizi, Luqmonova Mehribon Rahmatullo qizi - Zamonaviy ekonometrik va statistiak yondashuvlar asosida prognozlash va qaror qabul qilishning amaliy tatbiqi..	1153
Usanov Kamoliddin Xolboyevich - Ko‘p tarmoqli makroiqtisodiyot modellari.	1157
Usanov Kamoliddin Xolboyevich -Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda xizmatlar hajmi dinamikasi tahlili.	1160
Sunatov Jo‘rabek Turg‘unbek o‘g‘li - Aholiga aloqa va axborotlashtirish xizmatlari rivojlanish bosqichlarini Markov switching modeli asosida baholash.	1163

Xulosa. YAIM prognozi asosida qarorlar qabul qilish iqtisodiy barqarorlikni oshirish, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish va investitsiya muhitini yaxshilash imkonini beradi. Shu bilan birga, bu mexanizm iqtisodiy risklarni aniqlash va kamaytirishga yordam beradi, chunki prognoz natijalariga ko‘ra potentsial muammolar oldindan aniqlanadi va ularni bartaraf etish chorasi ko‘riladi.Shunday qilib, YAIM o‘sishini prognozlash va prognoz natijalari asosida qaror qabul qilish mexanizmi iqtisodiy boshqaruvning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Zamonaviy ekonometrik va statistik yondashuvlar yordamida prognozning aniqligi oshadi va iqtisodiy siyosatni ilmiy asosda shakllantirish imkoniyati yaratiladi. Bu esa mamlakat iqtisodiy rivojlanishining barqarorligini ta’minlashga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O.Q. Xatamov, EKONOMETRIKA ASOSLARI (Amaliy mashg’ulotlar uchun) QARSHI «INTELLEKT» NASHRIYOTI 2022
2. N.N.MURADULLAYEV, X.N.SABIROV AMALIY EKONOMETRIKA O’quv qo’llanma, TOSHKENT – 2024
3. X.Q.QARSHIBOYEV, SH.A.DJALILOV,B.I.ASHUROV EKONOMETRIKA darslik, IQTISOD-MOLIYA 2022.
4. Keynes J. M. The General Theory of Employment, Interest and Money. — London: Macmillan, 1936.
5. Samuelson P. A., Nordhaus W. D. Economics. — New York: McGraw-Hill, 2010.
6. Solow R. M. A Contribution to the Theory of Economic Growth. — Quarterly Journal of Economics, 1956.
7. Gujarati D. N., Porter D. C. Basic Econometrics. — New York: McGraw-Hill, 2009.
8. Wooldridge J. M. Introductory Econometrics: A Modern Approach. — Boston: Cengage Learning, 2016.
9. Box G. E. P., Jenkins G. M., Reinsel G. C. Time Series Analysis: Forecasting and Control. — New Jersey: Wiley, 2015.

KO‘P YILLIK O‘SIMLIKLARNI HISOBDA AKS ETTIRISH MASALALARI

Ravshanov Alisher Bobaqulovich *- Qarshi davlat texnika universiteti katta o‘qituvchisi.*
https://orcid.org/0009-0002-5204-2467 alisherravshanov0571@gmail.com

Ko‘p yillik o‘simliklar (Biologik aktivlar) hisobi qishloq xo‘jaligi korxonalari buxgalteriya hisobining muhim ob’ektlaridan biri hisoblanadi.

Ko‘p yillik o‘simliklar quyidagi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lib, bu ularning hisobga oshish jarayoniga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi:

1. Ko‘p yillik o‘simliklar uzoq muddatli aktivlar sifatida hisobga olindi. Ko‘p yillik o‘simliklar korxona balansida bilogik aktivlar sifatida tan olinadi. Meva berishga kirgan ko‘p yillik daraxtlar esa asosiy vositalar tarkibida aks ettiriladi. Ular bir necha yil davomida iqtisodiy naf keltiradi.
2. Ko‘p yillik o‘simliklarni boshlang‘ich qiymatni shakllantirish. Ko‘p yillik o‘simliklarni ekish, parvarish qilish, sug‘orish va hosilga kirguncha bo‘lgan barcha xarajatlar kapital qo‘yilmalar sifatida hisobga olinadi.

3. Ko‘p yillik o‘simliklarni amortizatsiyasi. Ko‘p yillik o‘simliklar hosilga kirgandan keyin, ularga asosiy vosita sifatida amortizatsiya hisoblanadi. Bu jarayon ularning foydali xizmat muddatiga bog‘liq.
4. Ko‘p yillik o‘simliklar hosili bilan bog‘liq hisob-kitoblar. Ushbu o‘simliklardan olinadigan yig‘ib-terib olish jarayonidagi mahsulotlar (meva, uzum va boshqalar) adolatli qiymatida, alohida bilogik aktivlar sifatida hisobga olinadi va korxonaning daromadiga kiritiladi. Keyinchalik to‘liq yig‘ib-terib olingan mahsulotlar tovar moddiy zahirasi sifatida tan olinadi.
5. Ko‘p yillik o‘simliklarni qayta tiklash va parvarish xarajatlari. Daraxtlarning ijobiy holatini saqlash uchun doimiy ravishda agrotexnik tadbirlar o‘tkazilib, ularning xarajatlari joriy xarajatlar sifatida hisobga olinadi.
Ko‘p yillik o‘simliklar buxgalteriya hisobining to‘g‘ri tashkil etilishi va hisobga olinishi qishloq xo‘jaligiga investitsiyalarni jalb qilish, ularni baholashni xalqaro standartlarga moslashtirish, eksportbop mahsulot ishlab chiqarish va ularni hisob tizimini takomillashtirish imkoniyatini beradi. Bu esa ko‘p yillik o‘simliklar hisobini yuritishning dolzarbligini begilab beradi.
Xorijiy iqtisodchi olim Ch. Xorngren xarajatlar hisobini tahlil qilib, biologik aktivlar bo‘yicha xarajatlarni to‘g‘ri taqsimlash va nazorat qilish muhimligini ko‘rsatgan.
Iqtisodchi olim A.O‘lmasovning ta’kidlashicha, ko‘p yillik o‘simliklar - bu bir necha yil davomida hosil beruvchi va qishloq xo‘jaligida uzoq muddatli aktiv sifatida ishtirok etuvchi biologik resurslardir.
Shuningdek, professor B.Yusupov ko‘p yillik o‘simliklarni “qishloq xo‘jaligi korxonalarining asosiy vositalari tarkibiga kiruvchi, uzoq muddatli iqtisodiy foyda keltiradigan tabiiy aktivlar” deb ta’riflaydi.
Iqtisodiy nuqtai nazardan, ko‘p yillik o‘simliklar buxgalteriya hisobi tizimida alohida o‘rin tutadi. Ularni baholashda quyidagi jihatlarni e’tiborga olish lozim bo‘ladi:
- ekish vaqtdagi xarajatlar;
- parvarishlash va yetishtirish xarajatlari;
- hosilga kirish davri;
- amortizatsiya (eskirish) jarayoni.
Demak, ko‘p yillik o‘simliklar investitsiya ob’ekti hisoblanib, ishlab chiqarish jarayonida bir necha yil ishtirok etib, har yili qayta-qayta mahsulot beruvchi resurslardir.
Moliyaviy hisobotning xalqaro standarlari bo‘yicha biologik aktivlar va asosiy vositalarni buxgalteriya hisobi nuqtai-nazaridan farqli jihatlarini quyidagi jadval asosida tavsiflash mumkin (1-jadval).

1-jadval

Biologik aktivlar va asosiy vositalarni buxgalteriya hisobi nuqtai-nazaridan farqli jihatlari[294]

Tavsiflanishi	BHXS 41- Qishloq xo‘jaligi	BHXS 16- Asosiy vositalar
Ta’rifi	Biologik aktiv - bu tirik hayvon yoki o‘simlikdir.	Asosiy vositalar – quyidagilar uchun mo‘ljallangan moddiy aktivlardir: - mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki yetkazib berish, yoki xizmatlarni ko‘rsatish, yoki boshqa tomonlarga

[294] Muallif ishlanmasi

		ijaraga berish, yoki ma’muriy maqsadlarda foydalanish uchun mo‘ljalangan; va - bir davrdan uzoqroq muddat davomida foydalanilishi kutilgan.
Tabiiy jihatidan farqi	Biologik aktivlar – tirik organizmlar bo‘lib, tabiiy o‘sish jarayoniga ega aktivlardir.	Asosiy vositalar – jonsiz va uzoq muddatli foydalaniladigan aktivlar (ayrim mevali daraxtlardan tashqari).
Qiymatining o‘zgarishi	Biologik aktivlarning qiymati o‘sishi, ko‘payishi yoki vazni oshishi sababli o‘zgarib boradi.	Asosiy vositalarning qiymati vaqt o‘tishi bilan amortizatsiya orqali kamayadi yoki kapital ta’mirlash orqali ko‘payadi.
Hisobga olish tartibi	Biologik aktivlar odatda adolatli (bozor) qiymat bo‘yicha baholanadi va qiymat o‘zgarishi moliyaviy natijalarga ta’sir qiladi.	Asosiy vositalar buxgalteriya hisobida boshlang‘ich qiymatda kiritilib, keyinchalik amortizatsiya hisoblanadi.

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) qishloq xo‘jaligi faoliyati bilan shug‘ullanuvchi korxonalarda aktivlarni, jumladan ko‘p yillik daraxtlar yoki ishchi va mahsuldor hayvonlarni hisobga olishda yagona, shaffof hamda taqqoslash mumkin bo‘lgan yondashuvni ta’minlaydi. MHXS bo‘yicha ko‘p yillik daraxtlar asosan IAS 16-"Asosiy vositalar" yoki IAS41-"Qishloq xo‘jaligi" standartlari asosida hisobga olinadi.

Meva beruvchi o‘simliklar 2014-yilning iyun oyidagi IAS16 va IAS41ga o‘zgartirishlarga asosan IAS 41-"Qishloq xo‘jaligi" standartidan chiqarilgan. O‘zgartirishlar uzum toklari, rezina daraxtlari va moyli palmalar kabi meva beruvchi o‘simliklar uchun moliyaviy hisobotni o‘zgartiradi. Yangi talablar 2016-yil 1-yanvardan kuchga kiritilgan, undan oldinroq qo‘llashga ham ruxsat berilgan.

Meva beruvchi o‘simliklar - bu ko‘p yillik qishloq xo‘jalik ekinlari bo‘lib, ular asosan meva hosili olish uchun yetishtiriladi.

Biologik aktivlarning bir qismi, ya’ni meva beruvchi o‘simliklar faqat bir necha yil davomida mahsulot yetishtirish uchun foydalaniladi. Ularning mahsulot berish muddati tugagandan so‘ng, ular odatda yaroqsiz holatga kelib qoladi. Meva beruvchi o‘simliklar hosilga kirgach, yetishtirilgan mahsulotlaridan tashqari, undagi biologik o‘zgarishlar endi kelajakda iqtisodiy foyda keltirish ahamiyatini yo‘qotadi. U keltiradigan yagona iqtisodiy foyda undan yig‘ishtirib olingan qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan iborat bo‘ladi.

Shu sababli ham meva beruvchi o‘simliklar IAS16da asosiy vositalar bilan bir xil tarzda hisobga olinishi kerak, degan qarorga kelindi, chunki ularning ishlashi ishlab chiqarishga o‘xshash. Meva beruvchi o‘simliklarda yetishtiriladigan mahsulotlar esa IAS41da biologik aktivlar asosida hisobga olinadi.

Qishloq xo‘jalik korxonalarida meva beruvchi o‘simliklarni to‘g‘ri tasniflash ularni hisobini tashkil etishda asosiy o‘rinni egallaydi.

2-jadval

Meva beruvchi o‘simliklarni tasniflanishi[295]

Tasniflash belgilari	Turlari	O‘simliklar nomi
Botanik belgisi bo‘yicha	Daraxtsimon	olma, nok, o‘rik
	Butasimon	malina, qaraqat
	Liana	uzum, kivi
Meva turiga qarab	Dona meva	olma, nok
	Danakli meva	o‘rik, shaftoli, olcha
	Yong‘oqli	bodom, yong‘oq
	Rezavor	malina, qoraqat
Hosilga kirish davri bo‘yicha	Erta hosilga kiruvchi	2–3 yil
	O‘rtacha hosilga kiruvchi	4–5 yil
	Kech hosilga kiruvchi	6–8 yil
Xo‘jalik ahamiyatiga ko‘ra	Yangi iste’mol uchun	olma, nok
	Qayta ishlash uchun	uzum, olcha
	Universal	o‘rik, shaftoli
Transportirovka va saqlash xususiyatiga ko‘ra	Yaxshi saqlanadigan	bodom, yong‘oq, qishki olma
	Tez buziladigan	malina, qulupnay
Hosil berish davomiyligiga ko‘ra	Qisqa muddat hosil beruvchi (2-10 yil)	malina, qoraqat, krijovnik
	O‘rta muddat hosil beruvchi (10–20 yil)	shaftoli, olcha, o‘rik, gilos
	Uzoq yil hosil beruvchi (20–50 yil)	olma, nok, yong‘oq, bodom, uzum

Meva beruvchi o‘simliklarni shakllantirish (barpo etish) davrida sarflangan xarajatlar kapitallashtirilgan xarajatlar sifatida hisobga olinadi. Meva beruvchi o‘simliklar mahsulot bera boshlagan paytdan e’tiboran IAS16 bo‘yicha asosiy vosita sifatida tan olinadi.

Shu sababli ham biz, bioligik aktivlarni shakllantirishga sarflangan kapital xarajatlarni hisobga olish uchun 0800-“Kapital qo‘yilmalarni hisobga oluvchi schyotlar” tarkibida 0870-“Ishchi va mahsuldor hayvonlarga kapital qo‘yilmalari” va 0880-“Ko‘p yillik o‘simliklarga kapital qo‘yilmalari” schyotlarni ochishni taklif qilamiz.

Xuddi shuningdek, bioligik aktivlarni hisobga olish uchun 21-BHMSda nazarda tutilgan 0700-“ O‘rnatiladigan asbob-uskunalarni hisobga oluvchi schyotlar” qayta nomlab 0700-“Uzoq muddatli biologik aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar” deb o‘zgartirishni, 0700-“O‘rnatiladigan asbob-uskunalarni hisobga oluvchi schyotlar” esa 0135-“O‘rnatiladigan asbob-uskunalar” schyotini ochishni taklif qilamiz.

[295] Muallif ishlanmasi

3-jadval

21-BHMS ga kiritiladigan o‘zgarishlar[296]

Amaldagi schyotlar va ularni nomlanishi		Taklif qilingan schyotlar va ularni nomlanishi	
-	-	0870	Ko‘p yillik o‘simliklarga kapital qo‘yilmalari
0700	O‘rnatiladigan asbob-uskunalarni hisobga oluvchi schyotlar	0700	Uzoq muddatli biologik aktivlarni hisobga oluvchi schyotlar
0710	O‘rnatiladigan asbob-uskunalar - mahalliy	0710	Uzoq muddatli biologik aktivlar (hayvonlar)
0720	O‘rnatiladigan asbob-uskunalar - xorijiy	0720	Uzoq muddatli biologik aktivlar (o‘simliklar)
-	-	0135	O‘rnatiladigan asbob-skunalarni hisobga oluvchi schyotlar
-	-	1270	Yig‘ishtirish jarayonidagi mevalar

Xo‘jalikning o‘zida yetishtirilib, shakllantirilgan meva beruvchi o‘simliklar xo‘jalik balansiga boshlang‘ich qiymatida kirim qilinadi.

Xo‘jalikning o‘zida yetishtirilib, shakllantirilgan meva beruvchi o‘simliklarning boshlang‘ich qiymati yer ko‘chat ekishga tayyorlash, ko‘chatlarni ekish, ish haqi va ijtimoiy soliq, agrotexnika xarajatlarini o‘z ichiga oladi.

Bu xarajatlarga xo‘jalikning buxgalteriya hisobida quyidagi yozuvlar beriladi:

1. Yerni ko‘chat ekishga tayyorlash va ko‘chatlarni texnika yordamida ekish xarajatlari summasiga:

a) Ko‘chat ekiladigan yerni unumdorligini oshirish uchun sarflangan mineral ug‘it xarajatlariga:

Debet 0870-“Ko‘p yillik o‘simliklarga kapital qo‘yilmalari”,

Kredit 1010-“Xom ashyo va materiallar”.

b) Ko‘chat ekiladigan yerni shudgorlash va ko‘chatlarni texnika yordamida ekish xarajatlari summasiga:

Debet 0870-“Ko‘p yillik o‘simliklarga kapital qo‘yilmalari”,

Kredit 2310 - “Yordamchi ishlab chiqarish” shudgorlash ishlari xo‘jalikning o‘z texnikasi yordamida amalga oshirilganda.

Kredit 6010 – “Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilarga to‘lovlar” shudgorlash ishlari maxsus traktor parkining texnikasi yordamida amalga oshirilganda.

2. Ishchilarning qul mehnati bilan ko‘chatlarni ekish xarajatlari summasiga:

a) Ishchilarga hisoblangan mehnat haqi summasiga:

Debet 0870-“Ko‘p yillik o‘simliklarga kapital qo‘yilmalari”,

Kredit 6710-“ Ish haqi bo‘yicha xodimlar bilan hisob-kitoblar”.

b) Ishchilarga hisoblangan mehnat haqi summasiga nisbatan hisoblangan ijtimoiy soliq xarajatlariga:

Debet 0870-“Ko‘p yillik o‘simliklarga kapital qo‘yilmalari”,

[296] Muallif ishlanmasi

Kredit 6520 - “Davlat maqsadli jamg‘armalariga to‘lovlar”.

Xo‘jalikning o‘zida yetishtirilib, shakllantirilgan hosilga kirmagan meva beruvchi o‘simliklar biologik aktiv sifatida tan olinadi va xo‘jalik balansiga tannarx qiymatida kirim qilinadi. Bu jarayonga qabul qilish dalolatnomasiga asosan quyidagi buxgalteriya yozuvi beriladi:

Debet 0720 – “Uzoq muddatli biologik aktivlar (o‘simliklar)”,

Kredit 0870-“Ko‘p yillik o‘simliklarga kapital qo‘yilmalari”.

Xuddi shuningdek, yil davomida meva beruvchi o‘simliklarni hosilga kirguniga qadar sarflangan barcha xarajatlar qadar kapital xarajatlar deb e’tirof etiladi. Hisobot davri oxirida o‘simlikning tannarxiga kiritiladi va bu xarajatlarga ham yuqoridagi buxgalteriya o‘tkazmasi beriladi.

Biroq, biologik aktivlarning ayrimlari, ya’ni meva beruvchi o‘simliklari mavjud bo‘lib, ular faqat bir necha davr davomida mahsulot yetishtirish uchun ishlatiladi. Ularning foydalilik muddati tugagandan so‘ng, ular odatda chiqindilarga aylanadi. Meva beruvchi o‘simliklari mevaga kirgach, yetishtirilgan mahsulotlaridan tashqari, ulardagi biologik o‘zgarishlar kelajakdagi iqtisodiy foyda keltirishda ahamiyatli bo‘lmaydi. Bu ko‘p yillik o‘simliklar yaratadigan yagona muhim kelajakdagi iqtisodiy foyda ya’ni, u yaratadigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan kelib chiqadi.

Meva beruvchi o‘simliklar IAS 16 da asosiy vositalar bilan bir xil tarzda hisobga olinadi. Bu ularni hisobga olinishi IAS 41 o‘rniga IAS 16 doirasida amalga oshirilishini bildiradi. Meva beruvchi o‘simliklarda yig‘ib olingan mahsulotlar IAS41ga asosan hisobga olinadi.

Biologik aktivlar to‘liq hosilga kirgandan so‘ng, ular ishlab chiqaruvchi o‘simliklar sifatida tan olinib, asosiy vositalar sifatida hisobga olinadi. Bu vaqtda biologik aktivlarni qayta tasniflash dalolatnomasiga asosan quyidagi buxgalteriya provodkasi beriladi:

Debet 0180 – “Ko‘p yillik o‘simliklar”,

Kredit 0720 – “Uzoq muddatli biologik aktivlar (o‘simliklar)”.

Meva beruvchi o‘simliklar (bog‘lar, uzumzorlar, yong‘oqzorlar) hosilga kirganidan keyingi o‘simliklarni parvarishlash agrotexnika xarajatlar ishlab chiqarish xarajatlari sifatida e’tirof etilib, 2010–“Asosiy ishlab chiqarish xarajatlari” schyotining debetiga yoziladi (4-jadval).

4-jadval

Meva beruvchi o‘simliklar (bog‘lar, uzumzorlar, yong‘oqzorlar)ni parvarishlash, agrotexnika xarajatlarining (2010) boshqa hisobvaraqlar bilan bog‘lanishiga quyidagilar misol bo‘lishi mumkin[297]

T/r	Xo‘jalik operatsiyalarining mazmuni	Hisobvaraqlarning bog‘lanishi	
		Debet	Kredit
1.	Daraxt oralarini shudgorlash ishlari xo‘jalikning o‘z texnikasi yordamida amalga oshirilganda	2010	2310
2.	Daraxt oralarini shudgorlash ishlari maxsus traktor parkining texnikasi yordamida amalga oshirilganda	2010	6010
3.	Daraxtlar ekilgan yerni unumdorligini oshirish uchun sarflangan mineral ug‘it xarajatlariga	2010	1010
4.	Ishchilar tomonidan bajarilgan ishlarga hisoblangan mehnat haqi xarajatlariga	2010	6710

[297] Muallif ishlanmasi

5.	Ishchilar tomonidan bajarilgan ishlarga hisoblangan mehnat haqi summasiga nisbatan hisoblangan ijtimoiy soliq xarajatlariga	2010	6520
6.	Biotranspormatsiya jarayoni natijasida daraxt mevalarining biologik aktiv sifatida tan olinishiga	1170	2010
7.	Biotranspormatsiya jarayoni natijasida daraxt mevalaridagi salbiy o‘zgarishlar (farq)ga	9430	2010
8.	Xaridorlarga sotishga yoki omborga jo‘natilgan mevalarning adolatli qiymati summasiga:	2810	1170

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.09.2024 yildagi “Respublikada agrosanoat sohasiga yangi bozor mexanizmlarini joriy etish hamda sanoatlashgan bog‘ va tokzorlarni barpo qilishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-151-sonli
Farmoni.
2. https://en.wikipedia.org/wiki/Robert_N._Anthony
3.https://www.abebooks.co.uk/9780131800007/Cost-Accounting-Managerial-Emphasis-Horngren - 0131800000/plp
4. O‘lmasov A. Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti. - Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
5. Yusupov B. Agrar siyosat va iqtisodiyot. - Toshkent, 2020.
6. Xolmurodov N. Agroiqtisodiyot asoslari. - Toshkent, 2019.
7. Raximov D. Qishloq xo‘jaligida buxgalteriya hisobi. - Toshkent, 2021.
8. 41-son “Qishloq xo‘jaligi” nomli Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (AV tomonidan 09.12.2022 y. 3400-son bilan ro‘yxatga olingan Moliya vazirining 10.11.2022 y. 61-son buyrug‘iga 26-ilova)
9. Ravshanov Alisher Bobaqulovich. Moliyaviy hisobda biologik aktivlarni baholash masalalari. Innovatsion iqtisodiyot ilmiy-amaliy electron jurnal. 2025 3-son iyun. 140-146 b.
10. Ravshanov Alisher Bobaqulovich. Joriy biologik aktivlarni buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalari. SOLIQ VA HAYOT electron ilmiy ommabop jurnal. 2026 1-son iyun. 92-98 b.
11. Richard Mattessich.Critique of Accounting: Examination of the Foundations and Normative Structure of an Applied Discipline (1995)

RESPUBLIKA HUDUDIDA YUK AYLANMASINING HAJMINI PROGNOZLASH

Usanov K. X. – katta o’qituvchi, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Oliy matematika” kafedrasi

Annotatsiya:*Ushbu maqolada O’zbekiston Respublikasida (2020-2025 – yillarda) yuk aylanmasi hajmi iqtisodiy statistik jihatdan tahlil etilgan. Tahlilda matematik statistika usullaridan, ya’ni mutloq o’rtacha o’sish qiymatidan foydalanib prognoz ko’rsatkichlari aniqlangan hamda tahlil etilgan.*